ADOLATNING FALSAFIY MUAMMO SIFATIDAGI TALQINLARI

Dehqonova Saida
Tojikiston Respublikasi Xujand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqoloda adolat tushunchasinind falsafiy talqinlari, mazmun-mohiyati, baholovch tushuncha ekanligi hamda uning falsafiy kategoriya ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Adolat, muammo, kategoriya, baholovchi tushuncha, falsafiy kategoriya.

Adolat tushunchasi kishilik jamiyatida hali urug‘chilik tuzumi davridayoq qaror topa boshlab, butun tafakkur tarixi davomida mavjud bo‘lib, o‘zgarib, yangi ma’no kasb etib kelgan.

“Adolat” tushunchasi - axloqiy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy kategoriya hisoblanadi. Adolat alohida kishi yoki ijtimoiy guruhning amaliy faoliyati bilan taloboti va ularning ijtimoiy holati o‘rtasidagi munosabatlarning mosligini ifodalovchi tushunchadir.

Jamiyatning shaxsga munosabati; shaxsning jamiyatga munosabati; shaxsning boshqa-shaxsga munosabati bo‘lishi mumkin.

Demak, adolat jamiyat va shaxs, shaxs va jamiyat, shaxs va boshqa shaxslar o‘rtasidagi, ijtimoiy voqelikdagi munosabatlarni baholash mezonidir. Bu baholash: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yoki axloqiy bo‘lishi mumkin va hayotning barcha jabhalarida kechadigan ijtimoiy munosabatlarda qo‘llaniladi. Adolat insoniyat ma’naviyati, qadriyatlarining oliy ko‘rinishlaridan biridir. Adolat - “baxt”, “tenglik”, “tinchlik”, “ozodlik” tushunchalari kabi kishilariing talobotini o‘zida ifoda etadi.

Yurtimizda olimlardan: B.To‘ychiyev[1], A.Ochildiyev[2], U.Bo‘tayev[3], U.Tilavov[4] ijtimoiy adolat mezoniga rioya qilish,

Odam dunyoga kelar ekan, u yashamoq uchun ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot sifatida o‘zida turli narsalarga ehtiyoj sezadi. Agarda inson hayotining dastlabki davrlarida biologik ehtiyojlar asosiy o‘rin tutsa, kishining voyaga etib borishi bilan, ijtimoiy ehtiyojlar hayot uchun muhim ahamiyat kasb etib boradi. Odam ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi sababli u axloqiy-ruhiy doirada, ijtimoiy muhit doirasida qamralgan bo‘ladi. Ijtimoiy tuzum o‘zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham adolat tushunchasi turli tarixiy davrlarda turlicha talqin etib kelingan. Qadim-qadimdan adolat xalqlar og‘zaki va yozma ijod na’munalarida ta’riflab kelingan. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlari boy islomiy va dunyoviy merosga ega. Buni o‘rganish va uni xalqimiz e’tiboriga havola etish, hozirgi kunning dolzarb masalalaridai biridir. Milliy mafkuramiz shakllanayotgan hozirgi bir paytda, o‘tmish merosimizni o‘rganishdagi

[1] Тўйчиев Б. Социальная философия. -Т.: Университет, 2010.
[2] Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. -Т.: Муҳаррир нашриёти, 2009. 22-23-бетлар.
[3] Бўтаев У. Ўзбекистон миллий манфаатларини таъминлашнинг концептуал асослари. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2021.
[4] Тилавов Ў. Глобал барқарор тараққиёт тизимида экологик партиялар фаолиятини такомиллаштириш стратегияси. Монография. -Т.: Renessans, 2021. -274 бет.

sustkashlik ma'naviyatimizga katta yo'qotish olib kelishi mumkin. Adolat bilan aytganda, yangi milliy mafkuramiz o'tmish mafkuralarining ijobiy qirralarini o'ziga olgan holda shakllanmog'i lozim.

Gumanitar jamiyatlar mafkurasi asosiy e'tiborni falsafaning aksiologik muammolarini o'rganishga qaratadi. Xuddi shuningdek, respublikamiz faylasuflarining va ijtimoiy fanlar vakillarining hozirdagi asosiy dolzarb tadqiqot mavzu ob'ekti - bu aksiologik muammolardir. Ya'ni milliy qadriyatlardir. Adolat esa qadriyatlarimizning muhim bo'g'inidir. Tarixda adolat har qanday mafkuraning asosiy tarkibiy qismi bo'lib kelgan.

Adolat - arababcha "adl" so'zidan olingan bo'lib, adolat, to'g'rilik, haqqoniylik, odillik, xolislik kabi ma'nolarni bildiradi.

Adolat[1] - ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiy-siyosiy ongida katta rol o'ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o'zida aks ettiradi. Siyosiy xatti-harakatlar, huquq va burch me'yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e'tirof qilish va hakozolarga mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g'amini eyishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda "Adolat" kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o'z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o'z faoliyatida fuqarolar tomonidan "Adolat" qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a'zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta'minlaydi.

Ulug' alloma Nosiriddin Tusiy ijtimoiy adolatning uchta asosiy talabi mavjudligini va u jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omil ekanini alohida uqtirgan edi:

"Adolatning birinchi talabi aholi turli tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlashdir. Ikkinchi talabga ko'ra, el-ulusning haq-huquqi teng ta'minlangan holda kishilarni xizmatga tayinlashda shaxsning salohiyati na imkoniyatlaridan kelib chiqish lozim. Adolatning uchinchi talabi esa barchaning teng farovonligini himoya qilish bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi xizmati va huquqiga qarab har bir inson ulushini olishiga imkon yaratishdan iborat"[2].

Eng umumiy ma'noda adolat (arabcha-odillik, to'g'rilik) real voqelik hamda insorning haq-huquklari va erkinliklari O'rtasidagi muvofiklikni ifodalaydi. Ular o'rtasidagi nomuvofiqlik esa adolatsizlik sifatida baholanadi.

Adolat ham, adolatsizlik ham hamisha konkret ijtimoiy mazmunga ega bo'ladi. Ijtimoiy hayotning har bir jabhasida, xususan, sotsial sohada ham u o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Ijtimoiy guruhlar jamiyat sotsial tizimida hamisha turlicha mavqega ega bo'lganlar, o'ziga xos haq-huquq, erkinliklardan foydalanganlar, turli majburiyat va mas'uliyat yukiga ega bo'lganlar va shundan kelib chiqib, o'z faoliyatlarini tashkil etganlar. Ammo bunday holat hamma vaqt ham ularning orzu-umidlari, intilishlari va hayotiy mo'ljallariga mos kelmagan. Aynan mana shu jarayon, sodda qilib aytganda, bir tomondan, sotsial guruhlar manfaati va intilishlari hamda mavjud voqelik, ikkinchi tomondan, sotsial guruhlar faoliyati hamda ularning real natijalariga beriladigan baho o'rtasidagi muvofiqlik sotsial adolat, nomuvofiqlik esa sotsial adolatsizlik tushunchalarining shakllanishiga olib kelgan.

"Adolat yo'q joyda kishilar hayoti kadr-qimmatini ushlab turadigan xech nima kolmaydi", - deb yozgan edi nemis mutafakkiri Immanuil Kant. Ijtimoiy adolatning bunday talqini kishilik jamiyati tarixi turli ko'rinishdagi adolatsizliklarni bartaraf etish, sotsial piramida elementlari manfaat va intilishlari, maqom va mavqelari o'rtasidagi muvofiqlik va uyg'unlikni ta'minlashga

[1] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-жилд. -Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2000. 34 бет.

[2] Иброҳимов А., ва бошқ. Ватан туйғуси. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 338 бет.

intilish, bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy munosabatlar tizimini muntazam takomillashtirib borish tarixi ekani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Sotsial adolat ijtimoiy munosabatlarni muntazam takomillashtirib borish bilan ham uzviy bog‘liq.

Ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish eng avvalo sotsial tizimning barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan jihatlarni bartaraf etishni anglatadi[1].

Shu bilan birga, u hamisha mavjud holatni yanada yaxshilash ehtiyojidan kelib chiqadi va uni sifatiy jihatdan yanada mukammalroq darajaga etkazish, yangi, yuqoriroq bosqichga ko‘tarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ayni paytda, sotsial munosabatlarni takomillashtirish ijtimoiy tizim rivojlanishi davomida yuzaga kelayotgan, oldin, kuzatilmagan muammolarni hal etish zarurati bilan belgilanadi hamda mavjud ijtimoiy tizimni saqlab qolish va rivojlanishini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Bayon etilgan mulohazalar jamiyat taraqqiyotining har qanday, hatto eng yuqori bosqichida ham ijtimoiy adolatni yanada kuchaytirish, chuqurlashtirish, keng yoyish hamda sotsial munosabatlarni yanada takomillashtirishga ehtiyoj saqlanib qolaverishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida ushbu ikki masala mafkuraviy kurash jarayonida doimo markaziy o‘rinni egallashini ko‘rsatadi[2].

Xulosa o‘rnida aytganda adolat tushunchasi nafaqat huquqiy-axloqiy tushuncha, kategoriya balki ijtimoiy falsafiy kategoriya hamdir.

Adolat inson faoliyatini baholovchi tushuncha bo‘lib, uning ma’naviy faoliyatini ham baholashi mumkin. Hozirgi ma’naviy yangilanish jarayonlarida adolat tushunchasining mazmun va mohiyati yoshlarimiz falsafiy dunyoqarashining kamolot omillaridan biri sifatida yanada teran ahamiyat kasb etib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. Bo‘taev U. O‘zbekiston milliy manfaatlarini ta’minlashning kontseptual asoslari. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2021.
2. Ibrohimov A., va boshq. Vatan tuyg‘usi. -T.: O‘zbekiston, 1996.
3. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. -T.: Muharrir nashriyoti, 2009.
4. Tilavov O‘. Global barqaror taraqqiyot tizimida ekologik partiyalar faoliyatini takomillashtirish strategiyasi. Monografiya. -T.: Renessans, 2021.
5. To‘ychiev B. Sotsialnaya filosofiya. -T.: Universitet, 2010.
6. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 1-jild. -T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.

[1] Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. -Т.: Муҳаррир нашриёти, 2009. 22-бет.
[2] Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. -Т.: Муҳаррир нашриёти, 2009. 23-бет.